QO‘SHMA GAPLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING STILISTIK TAHLILDAGI O‘RNI

Nazarova Nodira Baxtiyarovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistratura talabasi

nodiran201@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20019341

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo‘shma gaplarning tilshunoslikda o‘rganilish tarixi, ularning nazariy asoslari hamda stilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi qo‘shma gap tushunchasining shakllanish bosqichlarini aniqlash va ularning strukturaviy hamda funksional xususiyatlarini yoritishdan iborat. Ishda tarixiy-qiyosiy, tizimli va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar qo‘shma gaplar murakkab fikrni ifodalovchi sintaktik birlik sifatida nafaqat grammatik, balki stilistik va pragmatik imkoniyatlarga ham ega ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma gaplarni qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: qo‘shma gap, sintaksis, stilistika, strukturaviy yondashuv, funksional tahlil, izomorfizm, allomorfizm, qiyosiy tilshunoslik, predikat, grammatik kategoriya.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы сложных предложений, история их изучения в языкознании и их стилистический потенциал. Цель исследования - определить этапы формирования понятия сложного предложения и раскрыть его структурные и функциональные особенности. В работе использованы историко-сравнительный, системный и функциональный методы анализа. Результаты показывают, что сложные предложения представляют собой не только грамматическую, но и стилистически значимую синтаксическую единицу, способную выражать сложные логические отношения. Исследование создаёт теоретическую базу для сопоставительного анализа сложных предложений в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: сложное предложение, синтаксис, стилистика, структурный подход, функциональный анализ, изоморфизм, алломорфизм, сопоставительное языкознание, предикат, грамматическая категория.

Annotation: This article examines the theoretical foundations of compound sentences, their historical development in linguistics, and their stylistic functions. The main objective is to identify the stages of formation of the compound sentence concept and to analyze its structural and functional features. The study applies historical-comparative, systemic, and functional methods of analysis. The findings indicate that compound sentences function not only as grammatical units but also as stylistically and pragmatically significant syntactic structures capable of expressing complex logical relations. The research provides a theoretical framework for the comparative analysis of compound sentences in Uzbek and English.

Keywords: compound sentence, syntax, stylistics, structural approach, functional analysis, isomorphism, allomorphism, comparative linguistics, predicate, grammatical category.

Kirish. Tilshunoslikda qo‘shma gaplar murakkab fikrni ifodalovchi sintaktik birlik sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Murakkab tafakkur jarayoni til tizimida bir nechta predikativ markazga ega bo‘lgan tuzilmalar orqali namoyon bo‘ladi. Qo‘shma gaplar fikrning mantiqiy kengayishi, sabab-oqibat, shart, qarama-qarshilik va boshqa semantik munosabatlarni ifodalash imkonini beradi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda qo‘shma gaplar nafaqat grammatik kategoriya, balki stilistik va pragmatik imkoniyatlarga ega sintaktik birlik sifatida

ham talqin qilinmoqda. Shu bois ularning tarixiy shakllanishi va nazariy asoslarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasida til siyosatini rivojlantirish davlat darajasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasiga muvofiq o‘zbek tili davlat tili sifatida belgilangan bo‘lib, bu norma tilni ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish zaruratini belgilaydi [1]. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunda o‘zbek tilining jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash vazifalari qayd etilgan [2]. Shuningdek, PF-5850-son Farmon va PF-60-son strategik hujjatlarda tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish masalalari alohida ta’kidlangan [3; 4]. Xorijiy tillarni chuqur o‘rganish bo‘yicha qarorlar esa qiyosiy tadqiqotlarning dolzarbligini oshiradi [5].

Adabiyotlar tahlili. Qo‘shma gaplar nazariyasining shakllanishi qadimgi grammatik va mantiqiy qarashlarga borib taqaladi. Qadimgi yunon va rim tafakkurida murakkab fikr sintaktik birlik sifatida emas, balki mantiqiy tuzilma sifatida talqin qilingan. Antik grammatika va mantiq maktablari vakillarining qarashlari zamonaviy sintaksis nazariyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu borada Mika Seppänenning “Defining the Art of Grammar: Ancient Perceptions of γραμματική and Grammatica” nomli tadqiqotida qadimgi davr grammatika tushunchasining shakllanishi va murakkab fikrni ifodalash tamoyillari batafsil yoritilgan [6]. Muallif qadimgi qarashlarda gap mantiqiy birlik sifatida talqin qilinganini ta’kidlaydi.

O‘rta asr tilshunosligida murakkab fikrni ifodalovchi tuzilmalar mavjudligi tan olingan bo‘lsa-da, ular hali mustaqil grammatik kategoriya sifatida ajratilmagan. András Imrényi va Nicolas Mazziotta tomonidan yozilgan “Chapters of Dependency Grammar: A Historical Survey from Antiquity to Tesnière” asarida qadimgi va o‘rta asr grammatik tafakkurining rivojlanish bosqichlari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi [7]. Ushbu tadqiqotda murakkab sintaktik bog‘lanishlar dependency grammar tamoyillari asosida izohlanadi.

XVIII asrdan boshlab grammatika mantiqdan ajralib, mustaqil ilmiy soha sifatida rivojlandi. Bu jarayonni o‘zbek tilshunosligida Zebo Xolmanovaning “Tilshunoslik nazariyasi” asarida umumiy lingvistik nazariya nuqtai nazaridan izohlangan [8]. Muallif sintaktik birliklarning shakllanishi va gapning strukturaviy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratadi.

XX asrda strukturaviy tilshunoslikning shakllanishi qo‘shma gaplar nazariyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Til tizim sifatida talqin qilinib, sintaktik birliklar o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida tushuntirildi. Bu masala Said Karimovning “Tilshunoslik nazariyasi” asarida ham tizimli yondashuv asosida yoritilgan [9]. Muallif gapni til tizimining yuqori darajadagi birligi sifatida ko‘rib chiqadi.

Matn lingvistikasi doirasida qo‘shma gaplarning kommunikativ yaxlitligi muhim o‘rin tutadi. Murod Yo‘ldoshev, Shahnoza Muhamedova va Mavjuda Saparniyazovaning “Matn lingvistikasi” nomli asarida murakkab sintaktik tuzilmalar matnning mantiqiy yaxlitligini ta’minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi [10]. O‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplarni ilmiy o‘rganish XX asrda milliy grammatika shakllanishi bilan bog‘liq ravishda rivojlandi. Sirojiddin Usmonovning “Umumiy tilshunoslik” asarida gap fikrni ifodalovchi asosiy birlik sifatida talqin qilinib, murakkab predikativ tuzilmalarning mavjudligi qayd etiladi [11]. Keyinchalik Abdug‘afur Sodiqov, Abdumalik Abduazizov va Muhammad Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish” asarida til birliklari tizim sifatida izohlanib, gap va nutq munosabatlari aniqlashtirilgan [12]. Nazariy grammatika doirasida qo‘shma gaplar muammosi Ne’mat Mahmudov va Abduvali Nurmonovning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” asarida izchil tahlil qilingan [13]. Mualliflar qo‘shma gaplarning strukturaviy va semantik yaxlitligini asoslaydi. Shuningdek, Husan Ne’matov va Olim Bozorovning “Til va nutq” asarida qo‘shma gaplarning nutq jarayonidagi vazifasi ochib beriladi [14]. Tilni “sistemalar sistemasi” tamoyili asosida talqin

qilish qo‘shma gaplarning boshqa til darajalari bilan o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv Abduvali Sobirovning “O‘zbek tili leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish” nomli tadqiqotida asoslab berilgan [15]. Adabiy norma va stilistik mezonlar nuqtai nazaridan qo‘shma gaplarni baholash masalasi Erkin Begmatov va Abduvali Mamatovning “Adabiy norma nazariyasi” asarida yoritilgan [16]. Mualliflar sintaktik birliklarning normativ va stilistik xususiyatlarini aniqlaydi. Frazeologik va semantik boylikni tadqiq etish jarayonida qo‘shma gaplarning ekspressiv imkoniyatlari ham ochib berilgan. Bu borada Shavkat Rahmatullaevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” hamda Ne’mat Mahmudov va Dilbar Xudoyberganovaning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” muhim manba hisoblanadi [17; 18]. Zamonaviy tadqiqotlarda izomorfizm va allomorfizm tushunchalari muhim o‘rin tutadi. A. Sakning “Specifies of Construction Industry Terminology and Methods of Analysis of the Natural Language Sentences Similarity by Using Isomorphism of Their Structures” nomli maqolasida sintaktik tuzilmalarni izomorfizm asosida qiyosiy tahlil qilish metodologiyasi taklif etilgan [19]. Ushbu yondashuv qo‘shma gaplarning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qo‘shma gaplarning nazariy asoslari va stilistik imkoniyatlarini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik bazasini umumiy tilshunoslik nazariyasi, strukturaviy va funksional sintaksis tamoyillari, shuningdek qiyosiy-tipologik tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, tarixiy-tavsifiy metod asosida qo‘shma gap tushunchasining shakllanish bosqichlari o‘rganildi. Bu metod yordamida qadimgi grammatik qarashlardan boshlab zamonaviy lingvistik nazariyalargacha bo‘lgan ilmiy evolyutsiya tahlil qilindi. Turli davrlarda qo‘shma gaplarning mantiqiy, grammatik va funksional talqinlari solishtirildi hamda ularning rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, strukturaviy tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod asosida qo‘shma gaplarning ichki tuzilishi, predikativ markazlari soni, komponentlar o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanish turlari va grammatik vositalar aniqlashtirildi. Strukturaviy yondashuv qo‘shma gaplarni sodda gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit sintaktik butunlik sifatida talqin qilish imkonini berdi. Bog‘lovchi vositalar, bog‘lovchisiz munosabatlar, intonatsion birliklar va parallel konstruksiyalar tahlil ob’ekti sifatida o‘rganildi.

Uchinchidan, funksional-semantik tahlil metodi qo‘llanildi. Mazkur metod yordamida qo‘shma gaplarning nutq jarayonidagi vazifalari, mantiqiy munosabatlarni ifodalashdagi roli, axborot tuzilishi va stilistik yuklamasi tahlil qilindi. Qo‘shma gaplarning sabab-oqibat, shart, qarama-qarshilik, vaqt va taqqoslash kabi semantik munosabatlarni ifodalashdagi imkoniyatlari aniqlashtirildi. Bu bosqichda qo‘shma gaplarning kommunikativ salohiyati va matn tarkibidagi funksiyasi alohida e’tiborga olindi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari qo‘shma gaplarning strukturaviy, semantik va stilistik jihatdan murakkab sintaktik birlik ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qo‘shma gaplar ingliz va o‘zbek tillarida umumiy tipologik xususiyatlarga ega bo‘lish bilan birga, milliy grammatik va stilistik xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi.

Tahlil jarayonida qo‘shma gaplarning har ikki tilda ikki asosiy model asosida shakllanishi aniqladi:

- ✓ Bog‘langan qo‘shma gaplar (coordinative structures)
- ✓ Ergashgan qo‘shma gaplar (subordinative structures)

Ingliz tilida bog‘langan qo‘shma gaplar asosan and, but, or, so kabi bog‘lovchilar yordamida hosil qilinadi. O‘zbek tilida esa va, hamda, ammo, biroq, yoki kabi bog‘lovchilar faol

qo‘llaniladi. Strukturaviy jihatdan bu model izomorf xususiyatga ega bo‘lib, predikativ birliklar teng munosabatda bog‘lanadi.

Ergashgan qo‘shma gaplarda esa ingliz tilida because, if, when, although, while kabi subordinativ bog‘lovchilar ishlatiladi. O‘zbek tilida esa -sa, -ganda, -gani uchun, -ki, chunki kabi affiksal va analitik vositalar qo‘llaniladi. Bu yerda allomorfizm yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki ingliz tilida ko‘proq analitik vositalar ustun bo‘lsa, o‘zbek tilida sintetik shakllar faolroq ishlatiladi.

Tahlil natijasida quyidagi umumiy strukturaviy mezonlar aniqlandi:

- ✓ Har ikki tilda qo‘shma gap kamida ikki predikativ markazga ega.
- ✓ Komponentlar o‘rtasidagi munosabat grammatik vositalar yoki intonatsiya orqali ifodalanadi.
- ✓ Qo‘shma gaplar sintaktik ierarxiyaga ega.

Biroq ingliz tilida qat’iy so‘z tartibi (SVO) saqlanishi zarur bo‘lsa, o‘zbek tilida erkinroq sintaktik joylashuv kuzatiladi. Bu esa allomorfik farqlardan biri sifatida qayd etildi. Tadqiqot davomida qo‘shma gaplar orqali ifodalanadigan asosiy semantik munosabatlar quyidagicha tasniflandi:

- ✓ sabab-oqibat munosabati
- ✓ shart munosabati
- ✓ qarama-qarshilik munosabati
- ✓ vaqt munosabati
- ✓ izohlash va aniqlashtirish munosabati

Har ikki tilda sabab-oqibat va shart munosabatlari eng faol model sifatida kuzatildi. Masalan, ingliz tilida because va if yordamida ifodalangan munosabatlar o‘zbek tilida affiksal shakllar (-gani uchun, -sa) bilan ifodalanadi. Bu semantik izomorfizmni ko‘rsatadi, biroq grammatik ifoda vositalaridagi farq allomorfizmni namoyon etadi. Qarama-qarshilik munosabatlarida ingliz tilida although, however, but kabi vositalar ishlatilsa, o‘zbek tilida ammo, biroq, garchi kabi birliklar qo‘llaniladi. Semantik jihatdan moslik mavjud bo‘lsa-da, stilistik intensivlik darajasi farq qilishi mumkin.

- ✓ Qo‘shma gaplarning stilistik salohiyati ayniqsa badiiy va publitsistik matnlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki:
- ✓ Qo‘shma gaplar fikrni kengaytirish va mantiqiy urg‘u berish vositasi sifatida xizmat qiladi.
- ✓ Ergash gapli konstruktsiyalar matnda dramatizm va izchillik hosil qiladi.
- ✓ Bog‘langan qo‘shma gaplar ritmik parallelizm yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz badiiy matnlarida subordinativ konstruktsiyalar orqali murakkab psixologik holatlar ifodalanadi. O‘zbek badiiy nutqida esa qo‘shma gaplar ko‘pincha emotsional-ekspressiv birliklar bilan birga qo‘llanadi. Ayniqsa frazeologik birliklar bilan boyitilgan qo‘shma gaplar nutqning obrazliligini kuchaytiradi. Publitsistik uslubda qo‘shma gaplar axborotni tizimli yetkazish va dalillash vositasi sifatida faol ishlatiladi. Ilmiy uslubda esa aniqlik va mantiqiy izchillikni ta’minlash uchun ergashgan qo‘shma gaplar ustunlik qiladi.

Qiyosiy tahlil asosida quyidagi izomorfik xususiyatlar aniqlandi:

- ✓ Predikativ birliklar sonining ikki yoki undan ortiq bo‘lishi.
- ✓ Mantiqiy-semantik munosabatlarning universal mavjudligi.
- ✓ Koordinativ va subordinativ modellarning mavjudligi.

- ✓ Allomorfik jihatlar esa quyidagilarda namoyon bo‘ldi:
- ✓ Ingliz tilining analitik, o‘zbek tilining esa sintetik xarakteri.
- ✓ So‘z tartibidagi qat’iylik va erkinlik darajasi.
- ✓ Bog‘lovchi vositalarning shakliy farqlari.
- ✓ Stilistik ekspressivlikning ifodalanish vositalari.

Natijalar qo‘shma gaplarning har ikki tilda ham tizimli sintaktik birlik ekanligini, biroq milliy grammatik va stilistik xususiyatlar tufayli turlicha realizatsiya qilinishini ko‘rsatdi. Bu esa izomorfizm va allomorfizm tamoyillarining amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari qo‘shma gaplarning nafaqat grammatik, balki funksional va stilistik jihatdan ham murakkab sintaktik birlik ekanligini tasdiqladi. Olingan ma’lumotlar tarixiy va nazariy manbalarda ilgari surilgan qarashlar bilan uyg‘unlikda talqin qilindi.

Avvalo, qo‘shma gaplarning strukturaviy yaxlitligi haqidagi natijalar Ne’mat Mahmudov va Abduvali Nurmonovning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” asarida ilgari surilgan fikrlar bilan mos keladi [8]. Mualliflar qo‘shma gapni tarkibiy qismlari o‘zaro semantik va grammatik bog‘liqlikka ega bo‘lgan sintaktik butunlik sifatida talqin qilgan. Tadqiqotimiz natijalari ham qo‘shma gap komponentlari mustaqil emas, balki ierarxik munosabat asosida birlashishini ko‘rsatdi. Shuningdek, strukturaviy yondashuv asosida olingan xulosalar Said Karimovning “Tilshunoslik nazariyasi” asarida bayon etilgan tizimlilik tamoyili bilan hamohangdir [9]. Qo‘shma gaplarni sodda gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ichki munosabatlarga ega yaxlit birlik sifatida talqin qilish zamonaviy sintaksisning asosiy talabidir. Tadqiqot davomida aniqlangan strukturaviy modellar aynan shu nazariy pozitsiyani tasdiqladi.

Funktsional-semantik natijalar Husan Ne’matov va Olim Bozorovning “Til va nutq” asarida ilgari surilgan fikrlar bilan uzviy bog‘liqdir [14]. Mualliflar til tizimi va uning nutqdagi realizatsiyasi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib, sintaktik birliklarning kommunikativ vazifasini alohida ta’kidlagan. Tadqiqot natijalari qo‘shma gaplarning nutq jarayonida axborotni kengaytirish, mantiqiy izchillik yaratish va stilistik urg‘u berish vazifalarini bajarishini ko‘rsatdi. Adabiy norma va stilistik baholash masalasida olingan xulosalar Erkin Begmatov va Abduvali Mamatovning “Adabiy norma nazariyasi” asaridagi qarashlarga mos keladi [16]. Qo‘shma gaplarning mantiqiy ravshanligi, komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning aniqligi va ifoda ixchamligi normativ mezon sifatida muhim ekanligi tadqiqot davomida ham tasdiqlandi. Ayniqsa publitsistik va ilmiy matnlarda qo‘shma gaplarning ortiqcha murakkablashtirilishi nutq ravshanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi kuzatildi. Izomorfizm va allomorfizm masalasida olingan natijalar A. Sak tomonidan taklif etilgan strukturaviy o‘xshashlikni aniqlash metodologiyasi bilan uyg‘unlashadi [19]. Ingliz va o‘zbek tillarida koordinativ va subordinativ modellarning mavjudligi izomorf xususiyat sifatida namoyon bo‘ldi. Biroq grammatik vositalarning analitik va sintetik tabiati, so‘z tartibining qat’iylik darajasi hamda stilistik realizatsiya usullari allomorf farqlarni yuzaga chiqardi.

Tadqiqot boshida ilgari surilgan gipotezaga ko‘ra, qo‘shma gaplar har ikki tilda umumiy strukturaviy modellarga ega bo‘lsa-da, milliy grammatik va stilistik xususiyatlar sababli turlicha namoyon bo‘ladi. Olingan natijalar mazkur gipotezaning to‘liq tasdiqlanganini ko‘rsatdi. Izomorf xususiyatlar sintaktik tizimning universal qonuniyatlarini namoyon etsa, allomorf jihatlar tilning milliy o‘ziga xosligini ifodalaydi. Amaliy jihatdan mazkur tadqiqot natijalari bir necha yo‘nalishda qo‘llanilishi mumkin. Birinchidan, ingliz va o‘zbek tillari sintaksisini qiyosiy o‘qitishda metodik asos sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, tarjima jarayonida qo‘shma gaplarning strukturaviy mosligini aniqlash va semantik ekvivalentlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, stilistik tahlil va matn lingvistikasi doirasida murakkab sintaktik birliklarning funksional salohiyatini aniqlashda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida. - 21.10.1989 y., № 3561-XI. - URL: https://lex.uz/docs/-109394
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - 21.10.2019 y., № PF-5850. - URL: https://lex.uz/docs/-4561730
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. - 28.01.2022 y., № PF-60. - URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - 19.05.2021 y., № PQ-5117. - URL: https://lex.uz/en/docs/-5426736
6. Seppänen M. Defining the art of grammar: Ancient perceptions of γραμματική and grammatica : dis. … PhD in Humanities. - Turku : University of Turku, 2014. - 379 p. - (Annales Universitatis Turkuensis. Ser. B. Humaniora).
7. Imrényi A., Mazziotta N. Chapters of Dependency Grammar: A Historical Survey from Antiquity to Tesnière. - Amsterdam ; Philadelphia : John Benjamins Publishing Company, 2020. - 212 p. - (Studies in Language Companion Series ; Vol. 212).
8. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent : Nodirabegim, 2020. - 8-9-b.
9. Karimov S. A. Tilshunoslik nazariyasi. - Samarqand, 2012. - 40-b.
10. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. - Toshkent : Ishonchli hamkor, 2021. - 68-b.
11. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent, 1972. - 208 b.
12. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent : O‘qituvchi, 1981. - 224-b.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent, 1995. - 149-b.
14. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent : O‘qituvchi, 1993. - 32-b.
15. Sobirov A. O‘zbek tili leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. - Toshkent : Ma’naviyat, 2004. - 160-b.
16. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. - Toshkent : Navro‘z, 1997. - 1-3-qismlar.
17. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. - Toshkent : Qomuslar bosh tahririyati, 1992. - 600-b.
18. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. - Toshkent : Ma’naviyat, 2013. - 320-b.
19. Sak A. Specifies of construction industry terminology and methods of analysis of the natural language sentences similarity by using isomorphism of their structures // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. - 2021. - Vol. 1030. - No. 1. - Article 012079.